

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLAR TARJIMASIDAGI
MUAMMOLAR**
**ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ПОСЛОВИЦ НА АНГЛИЙСКИЙ И
УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ**
**PROBLEMS IN THE TRANSLATION OF PROVERBS IN ENGLISH AND
UZBEK LANGUAGES**

Boymirzayeva Mohinur Mahammadjon qizi, FarDu Talabasi

Po‘latjonova Gulxumor Nuriddin qizi, FarDu Talabasi

moxinurboymirzayeva@gmail.com

Annotatsiya. Boshqa xalqlar, ayniqsa, ingliz xalq maqollarini tarjima qilish juda qiyin vazifa hisoblanadi. Negaki, har bir xalq maqollari o‘zining kelib chiqishi va madaniyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra ularning ekvivalentini, ya’ni muqobil variantini topish tilshunoslikda turli muammolarga sabab bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: ingliz xalq maqollari, ekvivalent, tilshunoslar, adekvatik ma’no, ekvivalent birikma, qisman adekvatik, to‘liq adekvatik.

Аннотация. Перевод пословиц других народов, особенно английского – очень сложная задача. Ведь пословицы каждого народа связаны с его происхождением и культурой. Соответственно, поиск их эквивалента, то есть альтернативного варианта, вызывает в лингвистике различные проблемы.

Ключевые слова: английские народные пословицы, эквивалент, лингвисты, адекватное значение, эквивалентное сочетание, частично адекватное, полностью адекватное.

Absract: Translating the proverbs of other nations, especially English, is a very difficult task. After all, the proverbs of each nation are related to its origin and culture. Accordingly, finding their equivalent, that is, an alternative option, causes various problems in linguistics.

Key words: English folk proverbs, equivalent, linguists, adequate meaning, equivalent combination, partially adequate, fully adequate.

Maqol – xalq o‘g‘zaki ijodi namunasi bo‘lib, undagi ma’no qisqa va lo‘nda shaklda ifodalanadi. Biz maqollari badiiy adabiyotda va ba‘zan o‘zaro suhbat jarayonida ham uchratishimiz mumkin. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, har bir xalq maqollarining o‘ziga xos turlicha jihatlari mavjud. Tilshunoslar ingliz tilidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qilish va aynan o‘zbek tilidagi adekvatik – mos variantini topish bo‘yicha ilmiy ish olib borishgan. Shubhasiz, ushbu ish jarayonida tilshunos olimlar ingliz xalq maqollarining o‘zbek tilidagi variantini topishda muammolarga duch kelgan. Tilshunoslar maqollarni grammatik tomondan tahlil qilishganda ikki til grammatik qoidalaridagi turli farqlar ham tarjimadagi muammolarni keltirib chiqargan. Bunga asosiy sabablardan biri ikki xalq o‘rtasidagi madaniyat va urf-odatlarni turlicha ekanligi. Grammatik jihatdan olib qaraganda ikki til turli xil tillar oilasiga mansubligi – ularning geneologik tasnifiga bog‘liq. Ya’ni, o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga, ingliz tili hind-yevropa tillari oilasiga kiradi. Ingliz tilidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qilish yoki aynan mos variantini topish uchun tadqiqotchi nafaqat ingliz tilini bilishi va shu bilan bir qatorda urf-odatlaridan ham boxabar bo‘lishi lozim. Maqollar xalqning yashash tarzi va mehnat turi bilan bog‘liq holda bir necha asrlar avval yaratilgan, shuning uchun ularni tarixga bog‘lab o‘rganish va maqollar orqali o‘sha xalqning tarixiy hayoti va holati haqida ham ma’lumotkar olishimiz mumkin.

Har ikki xalq maqollarining adekvatik ma’nosi bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy ish olib borishgan. Bunga misol qilib, “Proverbs. Пословици. Maqollar” kitobini keltirishimiz mumkin. Bu kitobning mualliflari bo‘lmish Karamatov va Karomatova nafaqat ingliz-o‘zbek balki, ingliz-rus-o‘zbek maqollarining muqobillarini jamlashgan. O‘z kasbini ustasi, tarjimon G‘aybulla Salomovning “ikki tildagi bir-birining o‘rniga kantekestsiz qo‘llana oladigan maqollar, ideomalar va aytimlar ekvivalent birikma deyiladi” degan fikri ham o‘z o‘rniga ega. Ba’zi ingliz maqollari borki, ular hech qanday istisnosiz o‘zbek maqollariga mos kelveradi. Bunga ko‘ra to‘liq adekvatik maqollardan misol keltiramiz:

Easy come easy go – Oson kelgan oson ketadi.

Every man is the architect of his destiny – Har bir inson o‘z taqdirining me‘moridir.

Two heads are better than one – Bitta kalla yaxshi, ikkita kalla undan ham yaxshi.

Walls have ears – Devorning ham qulog‘i bor.

Silence gives consent – Sukut alomati rizo.

The apple doesn’t fall far from the tree – Olmaning tagiga olma tushadi.

Ushbu misol qilib keltirilgan maqollar to‘liq adekvatik maqollar hisoblanadi chunki, ularni kognitiv tahlil qilganda ularning ma‘nolari to‘laligicha bir-biriga mos keladi. Biz bu maqollarning inglizcha variantini o‘qiganimizda ham ularning aynan o‘zbek tilidagi sinonimini topishimiz oson bo‘ladi.

Ikkinchi turidagi maqollarda ularning ma‘nosi o‘xshash bo‘lsada, tuzilish jihatidan bir-biridan yetarlicha farq qiladi. Lekin ushbu turdagi maqollarda ularning ma‘nodosh so‘zlari qo‘llanadi va biz uni o‘qib asosiy ma‘nosini tushuna olamiz. Misol uchun:

The harder you work, the luckier you get – Mehnat, mehnatning tagi rohat.

There is no time like the present – Vaqting ketti – naqding ketti.

A good conscience is a soft pillow – Halollik – hotirjamlik.

No joy without annoy – Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u.

Time is money – Vaqting ketti – naqding ketti.

There is no time like the present ushbu maqol so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “Hozirgidek vaqti yo‘q” degan ma‘no kelib chiqadi. O‘zbekcha muqobildoshi esa – “Vaqting ketti – naqding ketti”. Bu maqoldan tushunishimiz mumkinki, hozirgi vaqtimiz va biz hozir qo‘ldan chiqargan narsalar hech qachon qaytib kelmaydi.

A good conscience is a soft pillow bu maqol tarjima qilinganda “Yaxshi vijdon bu yumshoq yostiq” deb tushuniladi. Lekin, o‘zbek maqollari kitobiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “halollik-xotirjamlik” degan maqolga mos variant bo‘la oladi. Buning ma‘nosi esa qachonki inson halol va vijdonli bo‘lsa, uning vujudida va oilasida tinchilik bo‘ladi va kechalari hotirjam uxlay oladi.

Uchinchi tur maqollariga keladigan bo‘lsak, ularning so‘zma-so‘z tarjima qilinganda boshqa ma’no kelib chiqsa ham ularning o‘zbek tilidagi variantini topish mumkin. Bunga misol tariqasida *No pain, no gain* maqolini keltiradigan bo‘lsak, bu o‘zbekchada “mashaqqat hamda qiyinchiliksiz rohat va foyda yo‘q” degan ma’no kelib chiqadi, lekin uni o‘qiganda hayolimizga bir necha o‘zbek maqollari kelishi mumkin. Ularning tushunish va bir nechta mos variantini topa olish tilshunosning tarjima sohasidagi iste’dodi va kognitiv tahlil qila olish qobiliyatiga ham bog‘liq. Quyida *No pain, no gain* maqolining o‘zbekcha muqobillarini keltirib o‘tamiz:

Harakatda barakat.

Mehnat qilib topganing qand-u asal totganing

Toqqa chiqmasang do‘lona qayda, jon kuydirmasang janona qayda?

Yuqoridagi maqollardan ham “mashaqqatsiz rohat yo‘q” degan ma’noni tushunishimiz mumkin. Qachonki biz harakat qilib mashaqqatlarni yengib o‘ta olsakkin ma’lum bir maqsadimizga erishamiz. *Mehnat qilib topganing qand-u asal totganing* degan maqolda ham shunga o‘xshash. Mehnat qilsang sen nimagadir erishasa va mehnat bilan topgan noning sen uchun qand-u as alga tengdir degan ma’no anglashiladi. Keyingi *Toqqa chiqmasang do‘lona qayda, jon kuydirmasang janona qayda?* Maqoli orqali biz o‘z maqsadimiz do‘lonaga erishish uchun bir nechta mashaqqat(tog‘)larni yengib o‘tishimiz zarurligiga isteora orqali ishora berilgan. Har uchalla maqoldan bir-biriga yaqin ma’noni anglashimiz mumkin.

Maqollarni o‘zaro mos ravishda tarjima qilish uchun tilshunos nafaqat ingliz tilini bilishi va yana ularning o‘ziga xos sotsial tushunchalari, urf-odatlarini, umuman olganda tilning lingvakulturalogiyasida xabardor bo‘lishi darkor. O‘quchiga ma’noni substansional(har taraflama mukammallik bilan) yetkazib berish orqali tarjimon o‘z ko‘zlagan maqsadiga erishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aliyeva, N. (2021). ИЗОМОРФИЗМ АНГЛИЙСКИХ КОЛЛОКАЦИЙ И ФРАЗЕМ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ С

УЧЕТОМ ПЕРЕХОДНОСТИ ЗНАЧЕНИЯ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).

2. Bozorova viloyat Muzaffarovna¹, Maqsudovna Mokhigul Usmonovna², The issue of equivalence in English and Uzbek proverbs. *Middle European scientific Buletin*, volume 5, October 2020.

3. K.M.Karamatova, H.S.Karamatov; Proverbs. Пословицы. Мақоллар. Toshkent – “Mehnat” -2000.

4. Nematovna, F. S. (2016). Activities to promote speaking in a second language. *APRIORI. Серия: Гуманитарные науки*, (1), 38.

5. Nurmatova, M. M., & Ismoilova, D. R. (2021). BUILDING THE STRATEGIC COMPETENCE IN THE HETEROGENEOUS COMMUNICATION. *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ*, 65.

6. Ortiqov, R. (2022). STRUCTURAL AND SEMANTICAL FEATURES AND DIFFERENCES OF ORAL AND WRITTEN SPEECH. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(9), 438-442.

7. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.

8. Uz.warbletoncouncil.org sayti